

## **KORXONALAR EKSPORT SALOHİYATIDA INNOVATSIYALAR ULUSHINI OʻSTIRISH ISTIQBOLLARI**

Maqolada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda korxona eksport salohiyatini oshirish kontsepsiyasining nazariy jihatlarini, respublika sanoat tarmoqlari korxonalarining eksport salohiyatining qiyosiy tahlili keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** eksport, korxona salohiyati, investitsiyalar dinamikasi, ishlab chiqarish salohiyati, milliy iqtisodiyot, ragʻbatlantirish.

В статье представлены теоретические аспекты концепции повышения экспортного потенциала предприятия в условиях формирования инновационной экономики, а также проведен сравнительный анализ экспортного потенциала предприятий промышленного сектора.

**Ключевые слова:** экспорт, бизнес-потенциал, инвестиционная динамика, производственный потенциал, национальная экономика, стимулы.

### **KIRISH**

Hozirda jahon iqtisodiyotida roʻy berayotgan yangi texnologiyalarning rivojlanishi hamda tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi bozorlaridagi raqobatning kuchayishi milliy iqtisodiyot subʼektlari tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish tizimini faollashtirish va uni yanada samarali tashkil etishga qaratilmoqda. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotini tarkiban yangilash, fan sigʻimkorligi yuqori boʻlgan ustuvor sohalarni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Bu esa, aholining tez oʻsib, oʻzgarib borayotgan ehtiyojlarini toʻlaroq qondirish, soʻnggi kashfiyot ishlanmalari va texnologiyalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tovarlarining hayotiylik davrini barqaror oʻsib borishini taʼminlovchi zamonaviy usullarni keng koʻlamda foydalanishni taqozo etmoqda.

Natijada bozor islohotlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi milliy korxonalarning iqtisodiy taraqqiyotini moddiy resurslar asosida emas, balki innovatsion shaklda, raqobat muhitini shakllantirish orqali amalga oshirilishini zaruratga aylantirmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev taʼkidlaganidek: “iqtisodiyotimizni jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qoʻllab-quvvatlash ustuvor vazifadir. Kelgusi yili eksport hajmini 30 foizga oshirib, 18 milliard dollarga etkazishni maqsad qilib qoʻymoqdamiz.

Biz eksportga yoʻnaltirilgan iqtisodiyotga oʻtishimiz, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirishimiz zarur”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliyas-28-12-2018>.

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI**

Mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda korxona eksport salohiyatini oshirishning ahamiyati va samaradorligining ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan yaʼni A. Smit, P.Krugman, V.Brandikourt, P. Lindert, Dj.Mill, M. Obstfeld, M. Pebro, M. Porter, Dj. Saks, P. Samuelsonlar tomonidan tadqiq qilingan va ularning ilmiy asarlarida keng yoritilgan<sup>1</sup>.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan esa A.A.Maltsev A.Semenov I. Kobuta, M. Prokopenko E. Serova, B.Fomin, A. Fomichev, I. Xramova, B. Chernyakov, G. Ovchinnikovlar korxona eksport salohiyatini oshirish va uning samaradorligi masalalari bilan etarlicha ilmiy izlanishlar olib borishgan<sup>2</sup>.

Oʻzbekistonda mazkur muammoning ilmiy va amaliy jihatlari M.Abdusalomov va B.Salimov, A.Rasulov A. Alimov, R.Abdullaev, D. Ahmedov, Sh. Arifxanov, T. Ahmedov, A. Bedrintsev, R. Karimov, F. Nazarova, E. Trushin, R. Husanov, T.Joʻraev, Q.Choriev, Sh.Mustafoqulov, U.Muhitdinova kabi olimlar asarlarida keng tadqiq etilgan<sup>3</sup>.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Innovatsion faoliyatga investitsiyalarni yoʻnaltirish bu faoliyatning yanada tezroq jadal surʼatlar bilan rivojlanishiga yordam beradi. Bu har bir mamlakatda innovatsion faoliyatga boʻlgan yondoshuv va mamlakatning investitsion siyosatiga qarab farqlanadi. Innovatsion faoliyat jahonning turli mamlakatlarida turlicha darajada rivojlangan. Chunki innovatsion faoliyat muhiti mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi. Yaratilgan innovatsiya albatta qandaydir yoʻl bilan himoya qilinishi kerak. Firmalar oʻzlari yaratgan innovatsiyalarini patentlar olish, mualliflik huquqi, savdo belgisi, mahsulot dizayni va boshqa yoʻllar bilan himoya qiladilar. Innovatsiya uchun patent olish barcha alternativ yoʻllar ichida eng qiymatli va foydalisi hisoblanadi. Shunday ekan yaratilgan yangilik uchun olingan patentlar soniga asoslanib innovatsion faoliyatga baho berish mumkin. Patent kooperatsiyasi boʻyicha xalqaro bitim mavjud boʻlib, bu bitim asosida tuzilgan tashkilot innovatsiya yaratayotgan kashfiyotchilar oʻzlarining yaratgan innovatsiyalariga xalqaro patent olishi va oʻzlarining yangiligini himoya qilishi uchun tuzilgan. Roʻyxatga olingan patentlar dinamikasini quyidagi rasmda koʻrib chiqamiz (1-rasm).

Bu rasmda biz AQSh, Evropa Ittifoqi, Yaponiya, Gollandiya va Kanada mamlakatlarida 1999 yildan 2010 yilgacha boʻlgan davrda Patent kooperatsiyasi toʻgʻrisida bitimga asosan roʻyxatga olingan patentlar dinamikasini koʻrishimiz mumkin.


---

<sup>1</sup> A.Smit *Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov.* —M.: Sotsekgiz, 1962. s. 332 s.; *Export Potential in Services: Estimation for selected European Countries.*

<sup>2</sup> Maltsev A.A. *Gosudarstvennoe regulirovanie vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti v RF 1994-95 gg.* Ucheb.posobie/A.A.Maltsev.-Ekaterinburg: Izd-vo EAIUP, 2004.; Semenov K.A.*Mejdunarodnaya ekonomicheskaya integratsiya.* -M.: Lagos, 2001. s. 128; A.S Fomichev *Ekonomicheskii potentsial i infrastruktura Finansovix rinkov Respubliki Kazaxstan.*

<sup>3</sup> M.Abdusalomov i drugie. *Problemi i predposilki uglebleniya ekonomiki Uzbekistana v mirovoy xozyaystvo.* Tashkent 2006.

Rasmdan koʻrinib turibdiki, roʻyxatga olingan patentlar boʻyicha AQSh birinchi oʻrinda boʻlsa, eng kam koʻrsatkich Kanadada qayd etilgan. AQSh da eng yuqori koʻrsatkich 2006 yilda qayd etilgan boʻlib, 55 384 tani tashkil etgan. AQSh da 2010 yilda 43 739 tani tashkil etib, bu 1999 yilga nisbatan



***1-rasm. Patent kooperatsiyasi toʻgʻrisida bitimga asosan roʻyxatga olingan patentlar (xorijda joylashgan hammuallif kashfiyotchilar bilan qoʻshib hisoblanganda, dona)<sup>4</sup>***

6 700 ta koʻpdir. 2010 yilda patentlar soni 1999 yilga nisbatan Evropa Ittifoqida 14 517 ta, Yaponiyada 27 393 ta, Gollandiyada 412 ta va Kanadada 1 009 ta koʻpdir. Rasmda barcha davlatlarda oʻsish kuzatilmoqda. Bu erda Yaponiya alohida ahamiyatga molikdir. Chunki ushbu mamlakatda patentlar soni 2010 yilda 1999 yildagi 8 540 tadan 35 933 taga olib chiqilgan. Bunga asoslanib aytishimiz mumkinki, Yaponiya innovatsion faoliyatda yillar davomida uzluksiz oʻsishga erishmoqda. 2010 yilda patentlar soni boʻyicha eng yuqori koʻrsatkichga 48 957 ta bilan EI mamlakatlari erishganlar.

Innovatsion faoliyat uchun qilinayotgan xarajatlar asosan quyidagilar uchun sarflanadi:

- ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari;
- patentlar va litsenziyalar;

<sup>4</sup> <http://stats.oecd.org> sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

- mahsulot dizayni;
- marketing faoliyati;
- ishlab chiqarish texnika-texnologiyasiga.

Rivojlangan davlatlarda ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar uchun qilinayotgan xarajatlar innovatsion faoliyatga qilinayotgan xarajatlar ichida alohida oʻringa ega. Chunki ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari innovatsion faoliyatning asosini tashkil qiladi.

*1-jadval*


**Rivojlangan davlatlarda mamlakat miqyosidagi ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga xarajatlarning YaIM dagi ulushi ( % larda)<sup>5</sup>**

yillar	AQSh	Yaponiya	Evropa Ittifoqi-15	Evropa Ittifoqi-25	Rossiya	Hindiston	Xitoy
1995	2,5	2,7	1,8	1,7	1,0	0,9	0,6
2000	2,7	2,9	1,9	1,8	1,1	0,9	1,0
2005	2,7	3,2	1,9	1,9	1,3	1,5	1,5
2010	3,2	3,3	2,0	1,9	1,0	2,0	1,7
2020(istiq bol)	3	3,5	2,3	2,2	2,3	2,4	2,5

Bu jadval maʼlumotlari bizga jadvalda keltirilgan davlatlarda ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga qilinayotgan xarajatlarning mamlakat YaIM dagi ulushini koʻrsatadi. Jadval maʼlumotlari bizga 2010 yilda 1995 yilga nisbatan innovatsion faoliyat uchun qilinayotgan xarajatlarning YaIM dagi ulushi AQSh da 0,7, Yaponiyada 0,6, Evropa Ittifoqi 15 da 0,2, Evropa Ittifoqi 25 da 0,2, Rossiyada 0,0, Hindistonda 1,1 va Xitoyda 1,1 foizga oʻsganini koʻrsatadi. Bunga asoslanib aytishimiz mumkinki eng yuqori oʻsish surʼatlari Hindiston va Xitoy davlatlarida kuzatilmoqda.

Bu jadvalda mamlakat doirasida amalga oshirilgan innovatsion faoliyat xarajatlarning YaIMga nisbatan ulushini koʻrib chiqqan boʻlsak, quyida korxonalar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarning YaIM ga nisbatan ulushlarini koʻrib chiqamiz.

<sup>5</sup> “Problemi teorii i praktiki upravleniya” xalqaro jurnali.



## 2-rasm. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga korxonalar tomonidan qilingan xarajattlar YaIM ga nisbatan ulushlarda<sup>6</sup>

2001 yilda AQSh da korxonalar tomonidan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (IT va TKI) uchun qilingan xarajatlar AQSh YaIM ga nisbatan 1,9 %ni tashkil etib bu eng yuqori koʻrsatkichdir. AQSh da bu borada oʻsish kuzatilib 2009 yilda bu koʻrsatkich 2,0 %ga etgan va etakchilikni saqlab qolgan. Bu grafik asosida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatlarning asosiy qismida oʻsish kuzatilayotgan boʻlsada, baʼzi mamlakatlarda buning aksi mavjud. 2010 yilda Frantsiya, Buyuk Britaniya, Shotlandiya mamlakatlari tadbirkorlik subʼektlari tomonidan IT va TKI uchun qilinayotgan xarajatlarning YaIM ga nisbatan ulushi 2001 yilga nisbatan biroz pasayishi kuzatilgan.

Ammo umumiy hisobda dunyo miqyosida korxonalar tomonidan innovatsion faoliyat uchun qilayotgan xarajatlarda oʻsish tendentsiyasini koʻrishimiz mumkin.

Innovatsion faoliyat uchun qilinayotgan xarajatlarning respublikamiz uchun xos boʻlgan bir necha xarakterli jihatlari mavjud.

Birinchidan, respublikamizda innovatsion faoliyatga investitsiyalar mamlakatning uzoq muddatli ishlab chiqarish orqali iqtisodiy oʻsishga erishishining asosiy omillaridan biridir. Inovatsion faoliyat natijasida yangi turdagi mahsulot yaratiladi yoki mavjud mahsulot takomillashtiriladi va oʻz oʻrnida uning isteʼmolchilarini topish orqali yuqori ishlab chiqarish koʻrsatkichlariga erishish mumkin. Bu esa oʻz oʻrnida yuqori iqtisodiy koʻrsatkichlarga erishishga olib keladi.

Ikkinchidan, respublikamizda innovatsion faoliyatga investitsiya jalb qilish har bir tarmoqning xususiyatidan kelib chiqqan holda tarmoqlar boʻyicha

<sup>6</sup> <http://www.scotland.gov.uk/Topics/Statistics/Browse/Business>

farqlanadi. Yaʼni barcha tarmoqlarda bu jarayon bir xil kechmaydi. Chunki baʼzi tarmoqlarda yangiliklar tez-tez boʻlib turishi talab qilinadigan boʻlsa, boshqalarida bu sekinlik bilan boʻladi.

Sanoat xususiyatidan kelib chiqqan holda innovatsion fvoliyatga investitsiya kiritishning farqlanishi quyidagilar bilan tushintiriladi:

- mahsulotga boʻlgan bozordagi talab;
- texnologik imkoniyatlar;
- yangilkni tadbiq etish uchun shart-sharoitlar.

*2-jadval*

**Oʻzbekiston Respublikasida barcha manbalar hisobidan texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalar uchun qilingan xarajatlar tarmoqlar kesimida (mln. soʻm)<sup>7</sup>**


Tarmoq nomi	Jami		
	2010	2011	2012
<b>Jami</b>	<b>264 445,80</b>	<b>372 646,30</b>	<b>311 879,90</b>
shu jumladan tarmoqlar boʻyicha:			
Sanoat	242 073,90	188 783,40	274 404,40
Qishloq va oʻrmon xoʻjaligi	34,50	119,70	942,70
Transport va aloqa	18 020,30	152 554,20	8 349,50
Qurilish	111,80	1 300,20	1 479,60
Savdo, umumiy ovqatlanish	196,10	1 712,40	1 122,70
Uy xoʻjaliklari			
Kommunal xoʻjalik			
Sogʻliqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy taʼminot	811,40	4 389,50	376,20
Taʼlim, madaniyat, sanat, fan va ilmiy xizmat koʻrsatish	2 606,90	22 536,40	21 679,00
Boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari	257,60	1,90	2 914,50
Boshqa noishlab chiqarish tarmoqlari	333,40	1 248,60	611,30

muhim omil ammo, uning texnologik jarayonga nisbatan ahamiyatlilik darajasi kamroqdir. Shuning uchun ham texnologik va izlanishlar tarmoqda innovatsion rivojlanish uchun muhim omil boʻlib hisoblanadi.

2-jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki barcha manbalar hisobidan texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalar uchun qilingan xarajatlar sanoat, transport va aloqa, taʼlim, madaniyat, sanat, fan va ilmiy xizmat koʻrsatish tarmoqlarida amalga oshirilgan boʻlib, 2010 yilda jami 264 445,8 mln. soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2012 yilda bu 311 879,9 mln. soʻmga etgan va 2010 yilga nisbatan 47 434,1 mln. soʻmga oshgan.

<sup>7</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Statistika qoʻmitasi maʼlumotlari





**3-rasm. Korxona turlari bo'yicha innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotganlarining ulushi( Evropa korxonalari ishchilar soni bo'yicha olindi)<sup>8</sup>**

Bunda oldin xorijiy tajribani ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. 8-rasm ma'lumotlari barcha Evropa davlatlariga taalluqlidir. Bu rasm ma'lumotlari bizga korxona turi va innovatsion faoliyat o'rtasida to'g'ri proporsionallik borligini ko'rsatadi. 1000 tadan oshiq ishchi-xodimlari bo'lgan korxonalarining 90% innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan bir paytda, 30 tadan kam ishchisi bo'lgan korxonalarining faqatgina 45% innovatsion faoliyat bilan shug'ullanmoqda. Umumiy hisobda 1990-1992 yil davr uchun Evropa davlatlari korxonalarining 53% innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishgan.

Bunga asosanib aytishimiz mumkinki, korxona hajmi kattalashishi bilan uning inovatsion faoliyati ham kengayib boradi.

Shunday qilib iqtisodiyot miqyosda sarflanayotgan investitsion mablag'lar ichida innovatsion faoliyat uchun sarflanayotganlari alohida ahamiyatlidir. Dunyo tajribasi hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarda innovatsion faoliyat uchun qilinayotgan investitsiyalar hajmi oshib borayotganini ko'rsatadi. Respublikamizda innovatsion faoliyatni investitsiyalashtirishda innovatsion faoliyatga investitsiyalar iqtisodiy o'sishga erishishining asosiy omillaridan biri ekanligi, innovatsion faoliyatga investitsiya jalb qilish har bir tarmoqning xususiyatidan kelib chiqish kerakligi, innovatsion faoliyatga investitsiya jalb qilish korxona turiga bog'liq ekanligi, innovatsion faoliyatga investitsiyalarni yo'naltirish bozordagi mavjud holat bilan ham bog'liqligi, innovatsion faoliyatga investitsiya kiritishda hudud xususiyatlarini hisobga olish kerakligi, innovatsion faoliyat uchun yo'naltirilayotgan investitsiyalar iqtisodiyotda bandlik muammosining echimlaridan biri ekanligi, innovatsion faoliyatga investitsiya yo'naltirayotgan korxonalarining boshqa xususiyatlari bilan o'ziga xosdir.

<sup>8</sup> STEP rapport/ report Innovation in European industry R-05, 1997. 13-bet.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Kuzmin D.V. Globalizatsiya i mirovaya valyutnaya sistema. //Mejdunarodnaya ekonomika, №11, 2011. s. 13-27.
2. Novaya strategiya Vsemirnogo banka dlya Uzbekistana. // Bankovskie vedomosti, № 28.16.07.2008.
3. Nadirxanov U.S. Pryamie inostrannie investitsii v Uzbekistane: opit, problemi, perspektivi rosta. - T.: «Fan va texnologiya», 2011.184 s.
4. Nadirxanov U.S. Pryamie inostrannie investitsii i ix rol v ekonomicheskom razvitii natsionalnix gosudarstv. //Ekonomika i finansi, №10.2010. s. 57-59.
5. Xaydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalarning investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2003, 11-b.
6. Pankov V. Globalizatsiya ekonomiki. //Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya, 2011, №1, s. 16-24.
7. Smislov D.V. Globalnie disbalansi i soglasovanie natsionalnix makroekonomicheskix politik v ramkax «Gruppi 20». //Dengi i kredit, №8, 2011. S.7-12.
8. Sidorova E.A. Antikrizisnie programmi v Germanii i Velikobritanii. //Mejdunarodnaya ekonomika, №4,2018.
9. Ribak O. Osnovnie tendentsii investitsionnoy aktivnosti. /7 Ekonomist, №12,2012.